

ELEKTRON TIJORATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA INTERNET XIZMATLAR TIZIMINING O'RNI

Ismailova Nigora Anvarovna

University of management and future technologies magistranti

Annotatsiya: Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bugungi kunda butun dunyo bo'ylab yuridik va jismoniy shaxslarning o'zaro elektron kanallar orqali savdolarini amalga oshirishga keng yo'l ochmoqda. Internet yagona axborot tizimi sifatida biznesni yagona rivojlanish bosqichiga o'tishiga imkon berdi. Natijada, elektron biznes va elektron tijorat yirik va kichik firma va kompaniyalar, jismoniy shaxslar hayotiga kirib keldi.

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, Internet, yuqori texnologiyali xizmatlar, elektron tijorat, elektron ommaviy axborot vositalari.*

РОЛЬ СИСТЕМЫ ИНТЕРНЕТ-УСЛУГ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ ЭЛЕКТРОННОЙ ТОРГОВЛИ

Исмаилова Нигора Анваровна

Магистрант в University of management and future technologies

Аннотация: Развитие информационных технологий сегодня открывает перед юридическими и физическими лицами во всем мире широкие возможности для проведения операций через электронные каналы. Интернет как единая информационная система позволил бизнесу перейти на единый этап развития. В результате электронный бизнес и электронная коммерция вошли в жизнь крупных и малых фирм и компаний, а также частных лиц.

Ключевые слова: *информационные технологии, Интернет, высокотехнологичные услуги, электронная коммерция, электронные средства массовой информации.*

THE ROLE OF THE INTERNET SERVICE SYSTEM IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF E-COMMERCE

Ismailova Nigora

Master's student at the University of management and future technologies

Abstract: The development of information technology today opens up wide opportunities for legal entities and individuals all over the world to conduct transactions through electronic channels. The Internet as a unified information system has allowed business to move to a single stage of development. As a result, e-business and e-commerce have entered the lives of large and small firms and companies, as well as individuals.

Key words: *information technology, Internet, high-tech services, e-commerce, electronic media.*

Kirish

Elektron tijoratni rivojlantirishga bizning mamlakatimizda ham keng e'tibor berilayapti. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining 2014-yilning 17 yanvardagi yig'ilishida «Elektron tijoratni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish muhim ushbu sohani rivojlanishiga qonuiy asos bo'lib xizmat qila boshlagan. O'zbekiston Respublikasining 29.09.2022-yildagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son qonuni 20-moddasida aynan elektron tijoratni tartibga soluvchi ayrim parametrlar belgilangan.¹

Hozirgi paytda mamlakatimizda 40 milliondan ziyod plastik kartochka muomalaga chiqarilgan bo'lib, ularning qariyb 10 million 500 mingtasi onlayn kartochkalardir.² Bugungi kunda telekommunikatsiya va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni Internet orqali to'lash mumkin. Eng qisqa muddatlarda bu boradagi g'ov va to'siqlarni bartaraf etish, ushbu qohani yanada rivojlantirish kerak», — deb ko'rsatgani mazkur sohaning dolzarb ahamiyatligini va uni rivojlantirish hamda huquqiy tartibga solinishini takomillashtirish zaruratini namoyon qiladi. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar xalq xo'jaligining yetakchi sohalarini liberallashtirishga qaratilgan bo'lib, elektron tijorat sohasi ham bundan mustasno emas va aynan shu dissertatsiya ishining dolzarbligini belgilab beradi.

Elektron savdo yordamida qo'shimcha buyurtmachilarni jalb qilish hisobiga daromadlarni oshirish, tannarxni kamaytirish, tovar harakati jarayonini qisqartirish, xizmatlar sifatini yaxshilashga erishish mumkin. Elektron to'lovlarni qayta ishlash, tijorat ma'lumotlarini uzatishning xavfsizligi va maxfiylik kabi ma'lumotlar esa ko'p miqdorda dastur ta'minoti yordamida yechilishi mumkin.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar xalq xo'jaligining yetakchi sohalarini liberallashtirishga qaratilgan bo'lib, elektron tijorat sohasi ham bundan mustasno emas va aynan shu mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

¹ <https://lex.uz/docs/-6213382>

² <https://uz.kursiv.media/uz/2023-09-29/ozbekistonda-bank-plastik-kartalar-soni-keskin-oshdi/>

Adabiyotlar sharhi

Elektron tijorat va uning mohiyati ko'pgina iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganib chiqilgan bo'lib, ulardan A.V Yurasov, J.S.Vestland, T.K.Klark, D.Kozelar elektron tijorat va uning mohiyatini, M.Ramzaev, P.Chujanov, V.Tarasovlar elektron tijoratning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotidagi o'rni, V.V Senkevin, N.I. Geraschenko va boshqalar elektron tijoratni boshqarishda davlatning roli bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Shuningdek, O'zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish masalalari va istiqbollari bo'yicha A.N.Aripov, X.A.Muxitdinov, M.M.Maxmudov, T.K.Iminov, N.Yusupova, B.Ergashev, S.Avganbaev, R.I. Isaev, A.R. Valiev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarida ko'rib chiqqanlar.

O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida elektron tijoratni tadbirkorlik faoliyatida qo'llashni kengaytirish borasida uzoq muddatli ilmiy izlanishlarni olib borish, korxonaning internetdan to'g'ri foydalanishi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va elektron tijoratni rivojlantirish yo'llarini aniqlash kabi muhim vazifalarning qo'yilganligi ushbu mavzuni dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

Bugungi kunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari xizmatlari jamiyatimizning barcha jabhalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Axborot texnologiyalarini joriy qilish tufayli ish yuritish madaniyatining elektron ko'rinishi shakllanmoqda, masofa qisqarmoqda, vaqt tejalmoqda, ishimizda iqtisodiy samara oshmoqda. Mamlakatimizda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangi turdagi bank xizmatlarini ko'rsatish, elektron tijorat, elektron to'lovlar tizimi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida o'zaro hisob-kitoblar samaradorligini oshirish uchun keng shartsharoitlar yaratib berilmoqda.

Elektron tijorat tizimi yordamida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi to'lov operatsiyalari tezkor bajariladi, buyurtmachilar va mahsulot yetkazib beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik amalga oshirishda bir qancha qulayliklarga ega bo'ladilar. Qolaversa, tadbirkorlarimiz zamonaviy axborot texnologiyalari xizmatlariga ega bo'lishib, dunyoning istalgan davlatidan o'zlariga hamkorlar topishi, mahsulot va xizmatlarini jahon bozoriga olib chiqishlari uchun yangi yo'nalishlar ochiladi.

ICTSUMMIT xalqaro tadqiqot tashkilotining tadqiqot natijalari o'zbek internet- foydalanuvchilarining soni va ijtimoiy tarkibini aniq tasvirlab beradi. 2020 yilda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 12 milliondan oshgan edi [1]. 2022 yil yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda *har qanday devays orqali internetdan foydalanganlar aholining 48% foizini tashkil etdi* [2]. Asosiy qismi (64%) 16 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlar va veb-sayohatchilarning 37 foizi 25 yoshgacha

bo'lgan yoshlardir. Veb-sayohatchilar orasida 59 % erkaklar va 41% ayollardir. Ko'pincha o'zbek internet-foydalanuvchisining o'rtacha daromadi oyiga bir kishi uchun 200 dollardan oshmaydi. Internet tarmog'idan foydalanuvchilarning 68 foizi oliy ma'lumotga ega.

Internet tarmog'idan foydalanuvchilar yaxshi sur'atlarda o'sib bormoqda, ammo 16,1 mln. "foydalanuvchilar" 16,1 mln. "Potensial mijoz" degani emas. Tadbirkorlikni rejalashtirganda bu juda muhim omil hisoblanadi.

Savdogarlar uchun asosiy manfaat oila a'zolarining daromadlari oyiga 51 dan 100 dollargacha bo'lgan darajadagi mijozlar bo'lishini hisobga olish oqilona hisoblanadi (daraja o'rtacha kunlik minimaldan bir oz yuqori). Jamoatchilik fikri fondi (SOF- Social Opinion Fondation) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida bu qism foydalanuvchilarning 34 foizni tashkil etadi. Ularni "mumkin bo'lgan xaridorlar" deb atash mumkin. Ko'proq arzon mahsulotlarga (kitoblar, musiqa, onlayn xizmatlar) ixtisoslashgan do'konlarning ushbu songa, shuningdek, mijozlarga past narxlarni taklif qilayotganlar uchun asosiy afzallik sifatida qarash mantiqan to'g'ri.

Sotuvchi uchun eng qiziqarlisi, oila a'zolari uchun har oyda 100 dollardan ortiqroq mablag'ga ega bo'lganlardir. "Potensial mijoz"larning ushbu toifasi asta-sekin o'sib bormoqda (2012 yilda 34 % dan 2022 yildagi 49 % gacha), bu holat tadbirkorlarga internet foydalanuvchilarining ushbu toifasini o'zlarining mahsulotlari va xizmatlarini "Potensial mijoz"lari sifatida qarashlariga imkon yaratmoqda.

Internet xizmatlari tizimi internet tarmog'i xizmatlarini o'z ichida qamrab olib, ikki qismda ko'rib chiqilgan³. Birinchi qismida internet tarmog'i abonentlariga amaliy protokollar tomonidan taqdim etiluvchi funksional imkoniyatlar majmui: veb hujjatlarni o'qish, elektron pochta, fayllarni uzatish va qabul qilish, muloqotda bo'lish, tarmoqda hujjatlarni saqlash va ular bilan ishlash kirs, ikkinchi qismda aynan foydalanuvchilar uchun xizmatlar ko'rib chiqiladi. Ularga tarmoqdan foydalanish, internet resurslarini yaratish, tashkiliy va axborot ta'minoti, tarmoqda reklamani joylashtirish va h.k.lar kiradi.

1-jadval

Elektron tijoratning an'anaviy savdo turlaridan farqi ⁴

№	Elektron tijorat	An'anaviy tijorat
1	Xaridor o'ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega	Xaridor vaqt ajratib, transport vositasida aytilgan manzilga borib xarid qilish kerak

³ Amirov D.M. va boshqalar. AKT izohli lug'ati. Toshkent 2010.

⁴ Muallif tomonidan manbalarga asoslanib ishlab chiqilgan

2	Savdo-sotiq faoliyatini ish faoliyati bilan birga parallel ravishda, ya'ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib borish imkoniyati	Savdo sotiq aloxida faoliyat bo'lib, undan tashqari boshqa faoliyat bilan band bo'lish imkoni yo'q
3	Ko'p sonli xaridorlarning bir vaqtning o'zida bir nechta firmalarga murojaat qila olish imkoniyati	Murojaat qiluvchi xaridorlar soni cheklangan bo'lishi
4	Kerakli mahsulotlarni tezlikda izlab topish va ushbu mahsulotlar mavjud bo'lgan korxonalariga murojaat qilishda texnika va transport vositalaridan samarali foydalanish imkoniyati	Kerakli mahsulot izlashda bir qancha muammolar mavjudligi, masalan, vaqt sarflash, texnik va transport vositalaridan unumli foydalanmaslik
5	Xaridorning yashash joyi, sog'lig'i va moddiy ta'minlanish darajasidan qat'iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati	Xarid qilish xaridorning sog'ligi, moddiy ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi
6	Hozirgi kundagi mavjud jahon standartlariga javob beradigan mahsulotlarni tanlash va sotish imkoniyati	Bozorda taklif etilayotgan tovar assortimenti bilan cheklangan bo'ladi
7	Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarining raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning sifatini oshirish imkoniyatini beradi	An'anaviy savdoda raqobat cheklangan bo'ladi, bu o'z navbatida sifatni oshirish va narxni barqarorlashuviga to'sqinlik qiladi

Natijalar

Internet elektron tijoratning butun dunyoda tarqalishi uchun qulay zamin yaratgan bo'lsada, elektron tijorat rivojlanishining axborot texnologiyalari nuqtai nazaridan bu vosita optimallik o'rnini egallab olmaydi. Biroq aynan internet elektron tijorat rivojlanishiga katta turtki bo'ldi va nafaqat katta korporasiyalar, balki kichik va o'rta tadbirkorlarga va alohida shaxslarga xam ushbu tijoratning bevosita ishtirokchisiga aylanish imkonini berdi. Bu bilan yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning tobora kengroq doirada jalb etilayotganini ta'minladi. Kundan kunga elektron tijorat orqali tovar oldi sottisi, tovar va xizmatlar assortimentini oshira boshlashi bilan davlatlar, davlat muassasalari, korxonalar va shaxslarni o'zaro hamkorligini amalga oshirish imkonini yaratib, bir hamjamiyatga birlashtirdi, telekommunikasion texnologiyalar to'siqlarsiz samarali hamkorlik amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Elektron tijoratda xaridni amalga oshirishda elektron pullardan foydalaniladi. Elektron pul - bu pul birligiga tenglashtirilgan belgilar hamda kupyura va tanga rolini bajaruvchi juda katta son yoki fayllardir. Bunday tizimning faoliyat ko'rsatish harajatlari boshqalaridan ancha kam. Bundan tashqari, elektron pullar to'liq anonimlikni ta'minlashi mumkin, chunki uni ishlatgan mijoz haqida hech qanday ma'lumot berilmaydi.

Internetdan xaridni amalga oshirishda internet to'lov tizimlaridan foydalaniladi. Texnika vositalaridan, axborot texnologiyalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan foydalangan holda elektron to'lov hujjatlari vositasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish elektron to'lovidir.

Elektron to'lov tizimida tovar/xizmatlar to'lovi xaridorning elektron hisobidan shaxsiy bank raqami hisobiga pul mablag'larini chiqarish imkoniga ega bo'lgan sotuvchining elektron hisobiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xulosa va munozara

Maqolada iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida elektron tijoratning roli va ahamiyati, elektron tijoratni iqtisodiy rivojlantirishda internet xizmatlar tizimi o'rni, elektron tijoratni rivojlantirish samaradorligining uslubiy asoslari keltirilgan. Shu o'rinda elektron tijorat tushunchasini mohiyati yoritib berilib, elektron tijoratni amalga oshirish uchun zaruriy shartlar nimalardan iborat ekanligi, elektron to'lov tizimlari va ulardan foydalanish, elektron tijoratni an'anaviy savdo turidan farqi to'g'risida faktlar keltirilgan. Bunday ishlarning amalga oshirilishi elektron savdo operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha xarajatlar ancha kamayadi, elektron tijorat sub'yektlarining bir-biridan geografik uzoqligi bilan bog'liq muammolar hal etilishiga, sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri tezkor ravishda shartnomaviy munosabatlarni o'rnatish uchun sharoit yaratiladi, shu jumladan bozorda yangi ishtirokchilar paydo bo'ladi (bunday sharoitda kichik biznes sub'yektlari xalqaro bozorda ham samarali raqobat qilishlari mumkin bo'ladi); axborot tarmoqlari vositasida elektron savdo qilishda operatsiyalarning shaffofligi oshadi, bu esa sotuvchilar va xaridorlarga qisqa fursatda narxlar, sifat va tovarni yetkazib berish bilan bog'liq har xil raqobatchilar taklif etgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muxitdinov X.A. O'zbekistonda infokommunikatsiya xizmatlari moliyaviy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari. Toshkent 2008. 214 b.
2. Адылова З.Т., Марахимов А.Р., Игнатов Н.А., Мадрахимов Ш.Ф. «Обеспечение информационной безопасности сетей передачи данных и автоматизированных систем». –Т., 2004.
3. Белоусов А. Электронный документооборот. Юридические аспекты ИТ-бизнеса // Сриме-ресерч.орг.
4. Бабкин Ф.В. Электронная коммерция и новые организационные формы компаний // Менеджмент в России и за рубежом. – 2000. – № 1

5. Брагин Л.А. Электронная коммерция: учебник. – М., 2012
6. Борщев В.Г. Становление и развитие предпринимательской деятельности в интернет-экономике. Диссертация кандидата экономических наук. –СПб., 2004. – 16–17-б.
7. Бахин С.В., Зажигалкин А.В. Правовые проблемы регулирования электронной коммерции: альтернативы конверсионному регулированию. Часть II // Журнал международного частного права. 2006. – № 53. – 6-б.
8. Василев С.В., Правовое регулирование электронной коммерции // Актуальные вопросы гражданского права. Сб. ст. / Под ред. М.И.Брагинского.
9. Вып 4. –М.: Норма, 2002. –С 306,325
10. Войниканис Е.А., Якушев М.В. Информация. Собственность.
11. Интернет: Традиция и новеллы в современном праве. – М.: Волтерс Клувер, 2004. – 75-б.